



ISSUES OF MUSEUMIZATION OF CARAVANSERAIS ON THE GREAT SILK ROAD (ON THE EXAMPLE OF THE JIZZAKH OASIS)

Javokhir Saidov

Lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: saidov.javohir@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: The Great Silk Road, Jizzakh oasis, caravanserai, museumization, Kaltepa, Khudaysar raboti, raboti, Zamin.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article analyzes the historical, economic, cultural, and touristic significance of the museumization of caravanserais in the Jizzakh oasis, located at the crossroads of the Great Silk Road, as well as the issues of museumization during their preservation and restoration.

BUYUK IPAK YO‘LIDAGI KARVONSAROYLARNI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI (JIZZAX VOHASI MISOLIDA)

Javohir Saidov

o‘qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

E-mail: saidov.javohir@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, Jizzax vohasi, karvonsaroy, muzeylashtirish, Kaltepa, Xudaysar raboti, rabot, Zomin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Ipak yo‘li chorraxasida joylashgan Jizzax vohasidagi karvonsaroylarni muzeylashtirishning tarixiy, iqtisodiy, madaniy va turistik ahamiyati hamda ularni saqlash va qayta tiklash asnosida muzeylashtirish masalalari tahlil etilgan.

ВОПРОСЫ МУЗЕЕФИКАЦИИ КАРАВАН-САРАЕВ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ (НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА)

Джавохир Саидов

Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

E-mail: saidov.javohir@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Великий шелковый путь, Джизакский оазис, караван-сарай, музейизация, Калтепа, Худайсар работы, работы, Замин.

Аннотация: В статье анализируется историческое, экономическое, культурное и туристическое значение музейизации караван-сараев Джизакского оазиса, расположенного на перекрестке Великого Шелкового пути, а также вопросы музейизации при их сохранении и реставрации.

Insoniyat ming yillar davomida savdo-sotiq, madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda boshqa hududlar aholisi bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu munosabatlar natijasida turli xalqlar bir-birlari bilan mol-ayirboshlash keyinchalik savdo-sotiq orqali doimiy muloqotda bo'lishgan. Shunday ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni o'zaro aloqadorligini ta'minlagan savdo yo'li-Buyuk Ipak yo'li edi. Buyuk Ipak yo'li qadimgi savdo yo'li bo'lib, Sharq va G'arb o'rtasida madaniy, iqtisodiy va ilmiy almashinuvlarni ta'minlagan. Turli hududlar o'rtasidagi doimiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi va rivojlanib borishi karvon yo'llarida savdo karvonlari, choparlar, sayyohlar, elchilik missiyalari a'zolari va umuman yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish masalalari va bu jarayonga bog'liq inshootlar qurilishining hal etilishi bilan bevosita bog'liq edi.

Jizzax vohasi Buyuk Ipak yo'lining muhim qismlaridan biri bo'lib, bu hududda ko'plab karvonsaroilar qurilgan. Ipak yo'lidagi savdo karvonlariga xizmat ko'rsatgan binolar asosida voha doimiy tarzda qo'shni mintaqalar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalar olib borgan. Shaharlar o'zaro karvon yo'llari bilan bog'lanib, savdo-sotiqning butun dunyo bo'ylab keng qamrovda rivojlanishi, qadimgi rabotlar, karvonsaroilar, sardobalar qurilishining shakllanishiga olib keldi va bu binolar ajdodlarimizning tashabbuslari bilan karvon yo'llari yoqasida barpo qilingan inshootlar bo'lib, ular savdo-karvonlari faoliyatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yo'lbo'yi inshootlarining rivoji va faoliyati bilan boy savdogarlar, mansabdor shaxslar shug'ullanib, shaharlarda ko'plab bozorlar, do'konlar, rastalar, ustaxonalar barpo etilgan. Bozorlarga yahshi va sifatli mahsulotni yetkazib berish ehtiyoji ishlab chiqarish va hunarmandchilikni jadal rivojlanishida muhim omil bo'ldi.

Jizzax vohasining karvonlar ko'p harakatlanuvchi hududlarida karvonsaroy, sardoba, rabotlar kabi yo'lbo'yi inshootlari bilan birga ko'priklar, quduqlar ham barpo etilgan. Ushbu holatda Buyuk Ipak yo'li faoliyati davrida (qadimdan XVI asrgacha) vohada turli sohalardan me'morchilik yo'nalishi ham o'ziga xos shakllanish va yuksalish bosqichiga ega bo'lgan. XX asrda mintaqa tarixini qayta jonlantirish uchun arxeologlar tomonidan qadimgi manzilgohlarda ahamiyatli tadqiqotlar olib borilganligi ma'lum. Jumladan, N.B.Nemtseva tomonidan 1983-yili Toshkent-Buxoro yo'nalishida joylashgan Jizzax viloyati Forish tumanidagi

Kaltepa karvonsaroyida qazuv tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot davomida Karvonsaroy tuzilishi o'rganilib, unga yaqin joyda 2 ta sardoba o'rni aniqlangan. Karvonsaroy loy g'isht va paxsa devordan qurilgan hamda tashqi devori qurilishida loyga mayda tosh bo'laklari qo'shib barpo etilgan. Sharqdan g'arbga tomon 63.15 m. shimoldan janubga tomon 58.7 m. tashkil etishi aniqlangan. Arxeologik izlanishlar sababli Jizzax vohasidagi yo'lbo'yi infratuzilmalar to'g'risida zarur va qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritilishi natijasida tarixiy manzilgohlar tarixiy qiyofasi qayta tiklanmoqda.

Qadimgi davlatlar shakllanib, xalqaro aloqalar izchil yo'lga qo'yila boshlagach, tranzit yo'llarda xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash davlat ahamiyatiga ega vazifalardan biri bo'lib qoldi. Bu yo'nalishda olib borilgan yo'llar xavfsizligi uchun yo'lbo'yi inshootlarning barpo etilishida mahalliy hukmdorlar va amaldorlar ishtirok etishgan. Jumladan, Ustrushona hukmdorlari ham boyligini rabotlar, yo'llarni obod qilish va boshqa shu kabi savdoni rivojlantiradigan ishlarga sarf etishgan. Shu o'rinda Jizzaxdan 2 farsax uzoqlikda Haydar ibn Kovus (830–841) tomonidan IX asr 1-choragida barpo etilgan Xudaysar karvonsaroyi va uning xarobasi yaqinida X asrda qurilgan Xasan raboti, Jizzax–Shosh yo'lidagi Zomin tumanidagi To'rtko'ltepa yodgorligi o'rnidagi karvonsaroy yuqoridagi manbaga isbot bo'ladi.

Ustrushonadagi karvonsaroylarning eng mashhuri Xudaysar raboti valiahd al-Afshin tashabbusi bilan Dizak (Jizzax) shahridan 1-2 farsax uzoqlikda chegara mavzeida bunyod etilgan. (qar. 11-ilova. 151-bet). Tarixchi-sayyoh Istaxriy (850-934-yy.) Xudaysar karvonsaroyi Samarqanddan Jizzaxga ketuvchi yo'lidagi eng yirik karvonsaroy ekanini qayd qilsa, Tarixchi-sayyoh Yoqut al-Hamaviy uni Ustrushona chegarasidagi shahar sifatida esga oladi. Tabiiyki, manbalarda bu qadar shon-sharafli tarzda ta'riflangan Xudaysar karvonsaroyi va uning joylashgan o'rnini aniqlash bo'yicha bir qator mutaxassislar izlanishlar o'tkazishgan va bu xususda o'z fikrlarini bildirishgan.

Jizzax vohasidagi yo'lbo'yi infratuzilmalari faoliyatini karvonsaroilar himoyasi uchun tegishli qo'riqchi qismlar birlashtirilishi, savdo yo'llari bo'ylab harakat qiladigan choparlarni oziq-ovqat va ulov vositalari bilan ta'minlashning yo'lga qo'yilishi, uzoq o'lkalarga yuboriladigan elchilik missiyalari va savdo karvonlarini qo'riqlovchi maxsus qurolli guruhlar, yo'l boshlovchilar xizmati paydo bo'lganligi, chegaralarda maxsus bojxonalar tashkil etilib, savdo-sotiqdan olinadigan boj to'lovlari joriy etilishi kabilarda ko'rish mumkin. Karvon yo'llarida xizmat ko'rsatishning eng muhim jihatini xavfsizlikni ta'minlash masalasi tashkil etardi. Tabiiy-geografik sharoit va iqlimiy o'zgarishlar ham yo'llarda xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan.

Arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalar ma'lumotlarini tahlil qilib, ayrim karvonsaroilar tuzilishi haqida ma'lum xulosalarga kelish mumkin. Masalan, Zomindan Farg'onaga va Toshkentga ketuvchi yo'lida topilgan X–XII asrlarga oid To'rtko'ltepa karvonsaroyi to'g'ri

to'rtburchak shaklida, tomonlarining uzunligi 106x106 metr bo'lib, shimol tomondan balandligi 5 metrni tashkil qiladigan asosiy arkasimon darvozaga ega bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar Jizzaxdan Forish orqali Nurotaga harakatlangan savdo karvonlari to'xtab xordiq chiqaradigan bir necha karvonsaroylar mavjud bo'lganligidan darak beradi.

Karvonsaroylar asosan sharq mamlakatlarida muayyan shaharlar, davlatlar, mintaqalarni bog'lagan markaziy yo'llar, bu yo'llarning tranzit tarmoqlari va shahobchalari yo'nalishi bo'ylab qurilgan inshootlar bo'lib, ulardan karvonlar to'xtab, tunab o'tadigan manzil sifatida foydalanilgan. Shaharlarga yaqin joylarda qurilgan karvonsaroylar xatarsiz bo'lganligi uchun qurilishida himoya vositalari asosida qurish shart bo'lmagan. Karvonsaroylar qurulish loyihasi tarkibida markaziy hovli, hovlini to'rt tomondan o'rab turgan ayvonlar, odamlar yashashi uchun hujralar, yuk saqlanadigan omborxonalar, ot-ulovlar uchun oldi yopiq sayisxonalar bo'lgan. Ba'zi hollarda karvonsaroylarda masjidlar ham bunyod etilgan.

Markaziy Osiyo shaharlarida karvonsaroylar qurilishi va tuzilishi deyarli o'xshash jihatlar asosida barpo etilgan. Karvonsaroylar qurilish texnikasi mo'g'ullar bosqinigacha ko'pchilik qismi bir hovlili bo'lgan. Mo'g'ullar bosqinidan keyin ikkinchi turdagi karvonsaroylar ya'ni ikki qismli (ikki hovlili) yoki hovlining yon tomonlarida to'rtta ayvon kompozitsiya bilan ifodalanadi. Jizzax vohasida joylashgan karvonsaroylar asosan XII asrgacha qurilgan bo'lib, asosan bir hovlili hisoblangan.

Vohadan o'tuvchi karvon yo'llarida harakatlanuvchi savdogarlar uchun turli xil yo'lbo'yi inshootlari keyinchalik muhim savdo markazlari sifatida o'z mavqeiga ega bo'la boshlagan. Shu tariqa, karvonsaroylar nafaqat savdo yo'llari bo'yida, savdo markazlari hisoblangan shaharlarda, yirik qishloqlar va qo'rg'onlarda ham ko'plab barpo etilgan. O'zbekiston va qo'shni respublikalar hududida joylashgan va bizning davrimizgacha saqlanib qolgan yo'lbo'yi karvonsaroylari va rabotlari, asosan, o'rta asrlar davriga oid bo'lib, ular, odatda, savdo karvonlari bir kunda bosib o'tadigan masofada, bir-biridan 5-6 farsax uzoqlikda qurilgan.

Ustrushonaning markaziy shaharlari yaqini va yo'lbo'yi mintaqalarda karvonsaroylar qurilgani va faoliyat yuritgani tarixiy manbalarda qayd qilinadi. Jizzax atrofi va Zomin o'rtasidagi arxeologik yodgorliklarini hisobga olib, o'rganib chiqqan mutaxassislarning qayd etishicha, o'rta asrlarda bu mavzeda 10 ga yaqin karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan. Umuman olganda, Jizzax vohasida Qoraqo'yli qishlog'i yaqinidagi Sarboztepa, Uchtepa janubidagi Ko'kravat, Galaquduq mavzeyidagi G'ishttepa, Ravot qishlog'idagi Qo'rg'ontepa, G'ulbo qishlog'i shimolidagi To'rtko'ltepa, Oqbuloq qishlog'idagi Machitlitepa, Forish tumanidagi Kaltepa, Otaqo'rg'on qishlog'idagi karvonsaroy, Jizzax shahriga yaqin joyda Hasan raboti, Sug'd bilan chegarada Ahmad raboti, Ko'k Gumbaz va Katvondiz nomli karvonsaroylar doimiy tarzda savdo karvonlariga xizmat qilgan.

Karvonsaroylar qurish jarayoni, ayniqsa, oʻrta asrlarda jadal tus oladi. Rivojlangan oʻrta asrlar, xususan, IX–X asrlardagi rabotlar, ularning meʼmoriy tuzilishidan kelib chiqsak, ular mustahkamlangan va qoʻriqlanadigan karvonsaroylar vazifasini bajarishga xizmat qilganligini koʻrishimiz mumkin. Buyuk Ipak yoʻlida joylashgan yirik Karvonsaroylar savdo-sotiq markazlari vazifasini ham bajarib, bu infratuzilmalarda mol sotish yoki ayirboshlash ishlarini amalga oshirilgan.

Shu oʻrinda Buyuk Ipak yoʻlidagi karvonsaroylarni muzeylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda mamlakatimiz turistik imkoniyatlari oshishi va tarixiy-madaniy merosimizni saqlab qolishga olib keladi. Dunyoda yirik ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro muzeylar kengashi tomonidan tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish hamda muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida turizm xizmatlar bozorini kengaytirishga oid masalalarni oʻrganish jahon muzeysunosligidagi asosiy ilmiy yoʻnalishlardan biriga aylanmoqda. Tarixiy obyektlarni muzeylashtirish bugungi kunda zamonaviy muzey amaliyotining ajralmas bir qismiga aylandi. Muzeylashtirish - tarixiy yodgorlikni oʻrganish, uni konservatsiya va restavratsiya qilish, badiiy va meʼmoriy interyerlarni, madaniy va tarixiy muhitni saqlagan holda ekspozitsiyaga moslashtirish va tiklash, talqin qilishni oʻz ichiga oladi. Tarixiy, madaniy va tabiiy obyektlarning muzey koʻrinishiga oʻtishini taʼminlaydigan faoliyat yoʻnalishini muzeylashtirish deb ataladi. Muzeylashtirishning maqsadi tarixiy-madaniy, badiiy, ilmiy qadriyatlarni aniqlash va saqlashdir. Koʻpincha bu atama koʻchmas, nomoddiy va atrof-muhit obyektlariga nisbatan qoʻllanadi, lekin umuman olganda, barcha muzey obyektlariga tegishlidir. Tarixiy, madaniy va tabiiy obyektlarning muzey namoyishi obyektlariga oʻtishini taʼminlaydigan muzey faoliyatining yoʻnalishini muzeylashtirish deb atash odatiydir. Muzeylashtirishning maqsadi tarixiy-madaniy, badiiy, ilmiy qadriyatlarni aniqlash va saqlashdir.

Arxeologik merosni saqlash va yangilash muammosi boy tarixshunoslikka ega. Uning asosiy qismi muzey faoliyatining alohida boʻlimi sifatida arxeologik merosni muzeylashtirish masalalariga bagʻishlangan. Aynan shu faoliyat yoʻnalishi, aksariyat tadqiqotchilar fikriga koʻra, arxeologik meros obyektlarini saqlash, oʻrganish va namoyish etish uchun sharoit yaratishi mumkin. Tadqiqotchilarning koʻrib chiqilayotgan masalalarga qiziqishi 1950-1960-yillardagi muzeylarning gullab-yashnashi davrida yuzaga keldi. Ikkinchi jahon urushining madaniy merosga yetkazgan zarari fonida qolgan yodgorliklarni asrab-avaylash zaruratga aylandi. tarixiy va madaniyatni yangilashning eng keng tarqalgan usullari quyidagilar edi:

- 1) madaniy meros obyektidan uning asl funksiyasiga koʻra foydalanish;
- 2) madaniy meros obyektidan funksiyasi oʻzgargan holda foydalanish (saqlab qoʻyilgan obyektning uning asosiy sifatlariga zarar yetkazmasdan moslashtirish);
- 3) obyektning ilmiy jihatdan oʻrganish va u toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni nashr etish;

4) tarixiy-madaniy meros obyektni muzeylashtirish.

Xorijda “muzey ustaxonalari”ni (Workshops) tashkil etilishi keng qollanilmoqda, bunda ishlab chiqarish jarayonini bevosita kuzatish va hatto unda ishtirok etish mumkin. Muzeylashtirilgan texnologiyalarga qiziqish homiyar va muzeylar manfaatlarini bogiash ehtimolini yuzaga keltirdi. Endilikda yirik ko‘rgazmada taqdim etilgan tovarlarning do‘konlarda sotilishi oddiy hol bo‘ib qoldi. Umuman, amalga oshiriladigan muzey siyosati rivojlanishining yangi bosqichi, bu - hududiy komplekslarning muzeylashtirilishidir. Muzey o‘z hududini kengaytiradi va uni yagona madaniy hamda tijorat loyihasi sifatida boshqaradi. Ushbu loyihada muzey, me‘morlik inshootlari, landshaft, ishlab chiqarish, oziq-ovqat va ko‘ngilochar industriyalar bir butunlikni tashkil etadi. Bu borada Sankt-Peterburgning markaziy hududlarini o‘zlashtirib olayotgan Davlat Ennitaji va Rus Davlat muzeyi kabi Rossiyaning ilg‘or muzeylarini misol keltirish mumkin. Muzey-madrasa - ayrim diniy yodgorliklarni muzeylashtirish asosida tashkil etilgan badiiy-me‘moriy muzey.

O‘zbekistonda madaniy meros ob’ektlari va muzeylar tarixi masalalari bir qancha olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Jizzax vohasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini asrab-avaylash va muzeylashtirish masalalariga oid bir qancha ilmiy izlanishlar va ilmiy tadqiqot materiallari va arxeologik ekspeditsiya hisobotlari mavjud.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Jizzax vohasidagi karvonsaroylarni muzeylashtirish nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki turizmni rivojlantirish, mahalliy iqtisodiyotni yuksaltirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim qadamdir. Bu jarayonda davlat, mahalliy aholi va xalqaro tashkilotlar hamkorligi asosiy omil hisoblanadi. Jizzax vohasida joylashgan karvonsaroylarni muzeylashtirish orqali madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish zarurati, karvonsaroylarning vayron bo‘lish sabablari va ularni tiklashning dolzarb masalalari, muzeylashtirish orqali turizmni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda karvonsaroylarni muzeylashtirishda ma‘lum muammo va kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, moliya va resurslar yetishmasligi, restavratsiya jarayonida an‘anaviy uslublar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, mahalliy aholi va davlat organlarining ishtirokini oshirish yo‘llari kabilarni aytib o‘tish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Тошкент: Академия, 2008.
2. Бердимуродов А, Индиаминова Ш. Буюк Ипак йўли (Қитъалар ва асрлар оша). Тошкент, 2017.

3. Немцева Н.Б. Отчёт по археологическим раскопкам на Кал-тепе в Форишском р-не Джизакской области (апрель-май 1983 г.) // *Фанлар академияси академик Я.Ғуломов номли археология институт архиви. Фонд 6, – Самарқанд, 1983.*
4. Истахрий. Китаб ал-масалик вал мамалик (Араб тилидан таржима, тадқиқот, изох ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т.Худайбергенов). Тошкент: Фан, 2019.
5. Ал-Истахри. Книга путей и государств (Китаб масалик ал-мамалик) / Перевод с персидского З.Н. Ворожейкиной, Я. Краполского// *Материалы по истории киргизов и Киргизии. Москва: Наука, 1973.*
6. *Пардаев М.Ҳ. IX-X асрларда Жиззах – ғозийлар шаҳри*//Тарих ва қадриятлар. Тошкент, 2015.
7. Грицина А.А. Уструшанские были. Ташкент: изд. Народного наследия им. А.Кадыри, 2000.
8. D.Nazarova Toshkent shahri muzeylari: shakllanishi, rivoji va muzeylashtirish tamoyillari/Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2024.
9. L.T.Jabbarova, Knyaz N.K.Romanov saroyi: noyob kolleksiyalar qarorgohi va muzeylashtirish jarayonlari/Muzeyshunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, ananalar va innovatsiyalar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Toshkent – 2023.
10. Каулен М. Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – М.: Этерна, 2012. – С.432. (61), 397, 403.
11. Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. / O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: "Turon-Iqbol", 2018.
12. Нозилов Д. Ўрта Осиё меъморчилиги ва меҳмонхоналар. Тошкент: Ўзбекистон, 1977.
13. Хмельницкий С. Между Саманидами и монголами. Архитектура Средней Азии XI-начала XIII вв. Ч. II. – Берлин– Рига, «GamaJun», 1997.
14. Пардаев М.Н., Ғофуров Ж.И. Марказий Осиё – Буюк Ипак йўли тизимида (қадим ва ўрта асрлар). Тошкент: Лессон пресс, 2021.
14. Зиливинская Э. Караван– Сарай: происхождение, линии развития, классификация // *Оазисы шелкового пути Современные проблемы этнографии, истории и источниковедения Центральной Азии: К 100-летия доктора исторических наук Б.Х.Кармышевой. – Москва, 2018.*
15. Хмельницкий С. Между арабами и тюрками. Архитектура Средней Азии IX-X вв. Берлин-Рига, 1992.
16. N.Ahmedjanov, Jizzax viloyatida madaniy meros obyektlariga munosabatlarning shakllanishi / *Zamonaviy tasviriy va amaliy san'at: terminologiya, yutuqlar va muammolar Respublika ilmiy-amaliy seminar to'plami. Toshkent – 2022.*
17. Axmedjonov N., Madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning ahamiyati / *Muzeylar: an'ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Toshkent: 2024.*